

Date: 27th July-2026

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT ISHTIROKCHILARIGA VAKOLATLI
IQTISODIY OPERATOR MAQOMINI BERISHDA MOLIVAVIY
BARQARORLIK MEZONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB
MASALALARI**

Shukurov Orifjon Abduraxmonovich

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi
bosh inspektori

shukurov.orifjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga vakolatli iqtisodiy operator maqomini berishda moliyaviy barqarorlikni baholashning amaldagi yondashuvlari tahlil qilingan. Xalqaro tajriba va milliy qonunchilik asosida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingidan moliyaviy barqarorlik mezonini sifatida foydalanish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: vakolatli iqtisodiy operator, moliyaviy barqarorlik, barqarorlik reytingi.

So‘nggi yillarda vakolatli iqtisodiy operatorlar (VIO) institutining tashqi savdodagi o‘rni tobora ortib, ularga taqdim etilayotgan bojxona soddalashtirishlari va moliyaviy yengilliklar ko‘lami kengayib bormoqda. Xususan, bojxona to‘lovlarini kechiktirib to‘lash hamda tovarlarni bojxona ta‘minotisiz o‘z omborlarida saqlash kabi imkoniyatlar joriy etildi². Bunday sharoitda mazkur imtiyozlardan faqat moliyaviy jihatdan barqaror va o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga qodir tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilarining foydalanishini ta‘minlash maqsadida VIO maqomini berishdagi tanlash mezonlarini korxonalarining moliyaviy barqarorligini hisobga olgan holda yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon bojxona tashkilotining (JBT) SAFE standartlari³ (SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade) hamda VIO dasturlarini joriy etish va validatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanmalarida⁴ moliyaviy barqarorlik (Financial solvency) VIO maqomini berishda baholanadigan asosiy mezonlardan biri sifatida belgilangan. Unda korxonaning o‘z moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyati, qarzdorlik darajasi, moliyaviy holatining barqarorligi hamda ta‘minot zanjiri xavfsizligini ta‘minlash imkoniyati alohida baholanishi tavsiya etilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda VIO maqomini berishda qo‘llanilayotgan tanlash mezonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, amaldagi tizim korxonaning moliyaviy holatini baholashni yetarli darajada qamrab olmagan⁵.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-sonli qarori.

³ World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade (2025).

⁴ World Customs Organization. AEO Implementation Guidance (2024).

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-sonli qarori.

Date: 27th July-2026



Mazkur mezonning yetarli darajada takomillashtirilmaganligi VIOlarga berilayotgan bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash, bojxona to'lovlarini ta'minotsiz amalga oshirish kabi yengilliklardan foydalanishda davlatning fiskal manfaatlariga xavf tug'dirishi, shuningdek, O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan vakolatli iqtisodiy operatorlarni o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimlarini kengaytirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan vakolatli iqtisodiy operatorlarni tanlab olishda moliyaviy barqarorlik mezonini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, uni riskga yo'naltirilgan yondashuv asosida baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yevropa Ittifoqining VIO bo'yicha qo'llanmasida⁶ "tasdiqlangan moliyaviy to'lov qobiliyati" (Proven Financial Solvency) VIO maqomini berishning majburiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ariza beruvchining oxirgi yillardagi moliyaviy hisobotlari, to'lov intizomi, qarzdorligi hamda kredit majburiyatlarini bajarish holati kompleks o'rganilishi belgilangan. Xuddi shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestriga kiritish uchun korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlashning alohida metodikasi⁷ tasdiqlangan bo'lib, u moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash tizimini nazarda tutadi.

O'zbekistonda esa amaldagi tanlash mezonlari bojxona va soliq qarzdorligining mavjud emasligi, tashqi iqtisodiy faoliyat tajribasi hamda qonunchilikka rioya etish kabi talablarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholashga doir alohida mezon belgilanmagan⁸. Natijada moliyaviy jihatdan zaif korxonalarning ham VIO maqomini olishi ehtimoli saqlanib qolmoqda.

Mazkur holat bir qator xavflarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, moliyaviy barqaror bo'lmagan korxonalarga bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash yoki ta'minotsiz rasmiylashtirish imkoniyatining berilishi bojxona to'lovlarining o'z vaqtida undirilmasligi va fiskal xavfni oshirishi mumkin. Ikkinchidan, VIO dasturining xalqaro shakllangan amaliyotga to'liq mos kelmasligi O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan vakolatli iqtisodiy operatorlarni o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimlar (MRA) geografiyasini kengaytirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Shu bois, VIO maqomini berishda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini aniqlash bo'yicha alohida mezon ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv bir tomondan xalqaro standartlarga moslikni ta'minlasi, ikkinchi tomondan VIO institutining ishonchliligini oshirib, davlatning bojxona va soliq tushumlari bilan bog'liq tavakkalchiliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga,

⁶ Regulation (EU) No 952/2013 of the European Parliament and of the Council laying down the Union Customs Code.

⁷ Решение Совета Евразийской экономической комиссии от 15.09.2017 N 65 "Об утверждении Порядка определения финансовой устойчивости юридического лица, претендующего на включение в реестр уполномоченных экономических операторов, и значений, характеризующих финансовую устойчивость и необходимых для включения в этот реестр".

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 500-sonli qarori.

Date: 27th July-2026

O'zbekistonda 2024-yildan boshlab amaliyotga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingidan korxonalarining moliyaviy barqarorlik mezonini ishlab chiqishda bir bosqich sifatida foydalanish mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi 55-son qarori bilan tartibga solinadi. Mazkur reyting tadbirkorlik subyektlarining nafaqat moliyaviy, balki umumiy faoliyati barqarorligini kompleks baholashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, reyting tadbirkorlik subyektining yer uchastkalari va (yoki) ko'chmas mulk obyektlariga egaligi, bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasi, soliqlarni o'z vaqtida to'lash intizomi, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha o'rtacha ko'rsatkichiga nisbati, soliq organlarining tekshiruvdan oldingi tahlili natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish holati, soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish holatlari hamda kreditorlik qarzidorligi kabi sof moliyaviy mezonlarni o'z ichiga oladi⁹.

Reyting ijobiy va salbiy mezonlarga muvofiq tadbirkorlik subyektiga musbat va manfiy ball berish orqali baholash va yig'ilgan balldan kelib chiqib kategoriyalashga asoslanadi. Unga ko'ra tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi quyidagi shkala orqali toifalanadi (1-jadval).

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi shkalasi¹⁰

Barqarorlik darajasi	Reyting ko'rsatkichi	Baho
Yuqori	AAA	96-100 ball
	AA	91-95 ball
	A	86-90 ball
O'rta	BBB	76-85 ball
	BB	66-75 ball
	B	56-65 ball
Qoniqarli	CCC	51-55 ball
	CC	36-50 ball
	C	26-35 ball
Quyi	D	25 ballgacha

Ushbu barqarorlik reytingini VIOLar uchun mezon sifatida joriy etish amalda mavjud VIOLarga qanday ta'sir qilishini aniqlash maqsadida bugungi kundagi VIO maqomiga ega korxonalarining barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari tahlil qilinganda quyidagicha holat yuzaga keldi (2-jadval).

2-jadval

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-sonli qarori.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-sonli qarori.

Date: 27th July-2026

Vakolatli iqtisodiy operatorlarning barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari ¹¹


Barqarorlik reytingi	VIOLar soni	Ulushi (%)
AAA	21	13,64
AA	7	4,55
A	14	9,09
BBB	28	18,18
BB	29	18,83
B	26	16,88
CCC	10	6,49
CC	15	9,74
C	4	2,60
Jami	154	100

2-jadval ko'rsatadiki, jami **154 ta** operatorning **42 tasi** yoki **27,27%** "yuqori" reytingga, **83 tasi** yoki **53,9%** "o'rta" reytingga, qolgan **29 tasi** yoki **18,83%** "qoniqarli" reytingga ega.

Barqarorlik reytingi mezoni kiritilganda buning VIO maqomini olish istagida bo'lgan talabgor korxonalarning imkoniyatiga ta'sirini aniqlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilarining barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Bugungi kunda jami **38 mingdan** ortiq yuridik shaxslar bojxona bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradi, ya'ni, eksport-import faoliyati bilan shug'ullanadi¹².

Ushbu yuridik shaxslarning barqarorlik reytingi quyidagicha (1-rasm).



¹¹ Bojxona qo'mitasida mavjud ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan (2026-yil 1-iyun holatida).

¹² Bojxona qo'mitasida mavjud ma'lumotlar (2026-yil 1-may holatida).

Date: 27th July-2026


1-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari¹³

1-rasmida bugungi kunda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan **38 125 ta** iqtisodiy operator barqarorlik reytingi bo'yicha baholangan. Ularning **7,1%** "yuqori" (AAA, AA va A), **34,9%** "o'rta" (BBB, BB va B), **39,12%** "qoniqarli" (CCC, CC va C) va **18,86%** "past" (D) barqarorlik reytingiga ega.

VIO maqomini berishda moliyaviy barqaror TIF subyektlarini tanlashga e'tibor qaratilishi bilan bir qatorda, TIF subyektlari uchun keskin to'siq paydo bo'lmisligi uchun birmuncha muvozanatli mezon belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Diagrammadan ko'rinadiki, tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi BBB–B reyting oralig'ida jamlangan bo'lib, tanlov chizig'ini ushbu oraliqda belgilash eng muvozanatli tanlov hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, VIO maqomini berishda "B" va undan yuqori barqarorlik reytingi mezonini belgilash modeli ko'rib chiqildi.

Tahlillarga ko'ra, barqarorlik reytingi "B" va undan yuqori bo'lishi mezonini kiritilishi amaldagi VIOLarning **29 tasiga** yoki **19%**ga ta'sir qiladi. Qolgan **125 ta** yoki **81%** operator o'z maqomini saqlab qoladi.

Amaldagi VIO maqomiga ega korxonalar va umumiy TIF qatnashchilarining barqarorlik reytingi bo'yicha taqsimotining taqqoslama tahlili quyidagicha:



2-rasm. Umumiy TIF qatnashchilari va VIO maqomiga ega korxonalarning barqarorlik reytingi bo'yicha taqsimoti

¹³ Bojxona qo'mitasida mavjud ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan (2026-yil 1-may holatida).

Date: 27th July-2026

2-rasmdan ko‘rinadiki, VIO maqomini allaqachon qo‘lga kiritgan korxonalarning barqarorlik reytingi umumiy TIF qatnashchilariniki bilan taqqoslaganda ancha yuqori. Umumiy operatorlarning **42%** o‘rta va yuqori barqarorlik reytingiga ega bo‘lgani holda VIOLarning **81,17%** shunday ko‘rsatkichga ega bo‘lib, qariyb ikki baravar yuqori ko‘rsatkich qayd etgan.

Bundan, amaldagi VIOLarni tanlab olish mexanizmi moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror korxonalarni tanlashga xizmat qilmoqda degan xulosaga kelish mumkin. Biroq VIOLarning **18,83%** hali ham “o‘rtachadan past” reytingga ega bo‘lgan iqtisodiy operatorlardan iborat bo‘lib, bu ularga berilgan bojxona soddalashtirishlari davlatning fiskal manfaatlari nuqtayi nazaridan qo‘shimcha tavakkalchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu kamchilikni tanlash mezonlariga barqarorlik reytingini kiritish orqali bartaraf etish mumkin. Umumiy TIF subyektlarining **16 018 tasi** yoki **42%** “B” va undan yuqori reytingga ega bo‘lib, taklif etilayotgan mezoniga mos keladi. Shu sababli ularning VIO maqomini olish imkoniyatini jiddiy qisqartirmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda amaldagi tartibda VIO maqomini berishda tadbirkorlik subyekting moliyaviy barqarorligiga oid jiddiy talablar belgilanmagan. Bunday talab JBT tavsiyalariga¹⁴ ko‘ra muhim ahamiyatga egaligi hamda xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilishi sababli O‘zbekistonda VIO maqomini berishda alohida mezon sifatida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini kiritish, bunda dastlab, “B” va undan yuqori reytingga ega bo‘lish talabini kiritish, keyinchalik, ushbu mezonni “BB”, keyin, “BBB” va bosqichma-bosqich yuqoriga ko‘tarib borish masalasini ko‘rib chiqish taklif etiladi.

Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bojxona organlarining tavakkalchiliklarni boshqarish samaradorligini oshirishga, O‘zbekiston VIO dasturining Jahon bojxona tashkiloti standartlari va xorijiy amaliyotga yaqinlashishiga erishiladi, o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi bitimlar geografiyasini kengaytirish uchun zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-sonli qarori;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-sonli qarori;
3. World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade (2025 edition);
4. World Customs Organization. AEO Implementation Guidance (2024 edition);
5. Regulation (EU) No 952/2013 of the European Parliament and of the Council laying down the Union Customs Code;

¹⁴ World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade (2025 edition); World Customs Organization. AEO Implementation Guidance (2024 edition).



Date: 27th July-2026

6. Commission Implementing Regulation (EU) 2015/2447 laying down detailed rules for implementing certain provisions of Regulation (EU) No 952/2013;
7. Таможенный кодекс Евразийского экономического союза (ред. от 29.05.2019);
8. Решение Совета Евразийской экономической комиссии от 15.09.2017 N 65 “Об утверждении Порядка определения финансовой устойчивости юридического лица, претендующего на включение в реестр уполномоченных экономических операторов, и значений, характеризующих финансовую устойчивость и необходимых для включения в этот реестр”.

